

## **O‘SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O‘ZGARISHLAR**

O‘risheva Pokiza G‘anisher qizi - JDPU, o‘qituvchi  
Bahronova Parvina Farmonbek qizi- JDPU, talaba

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada o‘smirlilik davrida tarbiyasi qiyinlik yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik omillari va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ma‘lumot beriladi. Shu bilan birga olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, o‘smirlarga xos psixologik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, deviant xulqning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Pedagoglar va ota-onalarning o‘smirlar bilan munosabati masalalari, o‘smir bilan ishlashning pedagogic va psixologik jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Psixologik omillar, ijtimoiy omillar, ota-on, oila, taqlid qilish, maktab, og‘ma xulq-atvor, deviant xulq-atvor, o‘z-o‘ziga baho berish, tarbiyasi qiyinlik, ma’naviy axloqiy me’yorlar, o‘smir ruhiyati.

Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlar, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta‘limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq pisixologik iqlimni yaratadi. O‘smirlilik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. Bunga asosiy sabab bu davrda o‘smirlar katta yoshli odamlar ega bo‘lgan hamma narsalardan foydalanishga harakat qiladilar, tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zining ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish uchun esa kuchli, qo‘rqmas, epchil va mustaqil ish yurituvchi bo‘lishga intiladi. O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi oilada, maktabda keskin ziddiyatli vaziyatlarni shuningdek o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa murabbiylari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi nuqsonlar, oiladagi pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog‘atga yetmagan tengqurlarining ta’siri, madaniy-ma’rifiy, ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkin.

G.K.To‘laganova «Tarbiyasi qiyin» o‘smirlarning motivatsion ehtiyoj doirasidagi qiziqishlarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etar ekan, uning ta‘kidlashicha, tarbiyasi «qiyin» o‘smirlar qiziqish sistemasi ko‘p jihatdan ularni qurshagan «muhit» yetakchi ehtiyojiga, yosh xususiyatiga, muomala doirasiga bog‘liqidir. Mo‘tadil o‘smirlar tarbiyasi «qiyin»lardan farqli o‘laroq o‘z qiziqishlarini boshqarish imkoniyatiga egadirlar shuningdek, 6-sinfdan boshlab tarbiyasi «og‘ir» o‘smirlarda o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqish va motivatsiya susayadi, ammo ayrim tarbiyasi og‘ir o‘smirlar o‘quv motivatsiyasi yuksakligi

bilan ajralib turadilar. O'smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan, o'quvchilarni ajratmaydigan, o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

N.I.Pirogov birinchi bo'lib bolalik o'z qonunlariga ega va ularni hurmat qilish kerak deb aytib o'tgan. Jumladan, «Agar bolalar jamiyat qonun-qoidalarini buzish huquqiga ega bo'lmasalar, bizning ham o'z navbatida bolalar dunyosining qonunlarini buzishga haqqimiz yo'q». Ota-onalar va pedagoglar o'smirlar bilan alohida ishlab, ularning ko'nglini topishi va xatti-xarakatlarini o'z vaqtida to'g'ri yo'lga solishlari lozim. O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, o'zligini anglash, baholash kabilar shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. Psixologlar o'tkazgan taddiqotlardan ko'rindiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydi. Shuningdek, G.Ananyevning ta'kidlashicha – “Shaxs o'zi haqda bir fikrga kelishida, jamoa hayotini hamda o'ziga baho berishni shakllantiruvchi baholash munosabatlarining to'g'ri rivojlanishi muhimdir”.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'z-o'ziga baho berishning o'ziga xos xususiyatlari masalalari N.G.Kamilova ishlarida yoritilgan bo'lib, ijtimoiy maqbul xulq-atvorni ta'minlashda yordam beradigan o'z-o'ziga baho berishning asosiy xususiyati o'ziga bo'lgan emotSIONAL-QADRIYATLI munosabatni belgilovchi, kongruentlik va o'z-o'zini anglash bilan xarakterlanuvchi konstruktivlik ekani ta'kidlanadi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda esa destrukтив o'z-o'ziga baho berish xos bolib, bu holat ularning shaxslararo munosabatlar jarayonida o'z o'rnini topishiga to'sqinlik qiladi, turli nizolarni vujudga keltiradi va shaxsdagi xulqiy buzilishlarga sabab boladi. Ko'pincha o'smirlar o'zlariga salbiy baho beradilar, kamchiliklarining uzun ro'yxatiga faqat bitta ijobiy xislat qo'shiladi. Bu o'smirning o'ziga «tashqaridan» qarashiga bogliq, kattalarning salbiy bahosi ortib boradigan va ijobiy baho kamdan-kam ko'rsatiladigan tasavvurlari interiorizatsiya qilinadi. O'smirga o'zini baholashning shaxsiy mezonlarini ishlab chiqishga, o'zini «ichdan» ko'rishga va o'z yutuqlarini baholashga, shaxsining kuchli tomonlariga suyanishga o'rgatmoq lozim. Shunday ekan, o'smirlarda tarbiyasi qiyinlikning yuzaga kelishida nafaqat o'smirning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan ota-onaning unga bo'lgan munosabati, xatto jamiyat ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi.

O'smirlarni tartibbuzarlikka jalb etayotgan qator ijtimoiy omillar mavjud. Bular:

1. O'smirlarda bo'sh vaqtning ko'pligi.
2. Kattalar tomonidan nazoratning yo'qligi.
3. Ko'ngilochar va zararli odatlarga imkon borligidir.

O'smir xulq-atvorigagi salbiy o'zgarishlar sabablarini ijtimoiy omillar bilan bog'lagan V.M. Karimovaning shogirdi A.T.Qodirova o'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida oila muhitining, xususan, ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati hamda har bir oila a'zosining ijtimoiy psixologik mavqeyi, oilaviy munosabatlarga tayyorlik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etadi. Shuningdek, o'smirlarda aniqlangan nizokashlik to'g'risidagi tasavvurlar mohiyatan oiladagi o'zaro munosabatlarga, nafaqat ota-onal bilan, balki aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi muomala xarakteriga ham bo'g'liq ekanligini ta'kidlaydi.

O'smirlik davrida yoshlardan tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy psixologik va biologik omillar quyidagilardan iborat:

1. O'smirlik davrida vujudga keladigan morfologik va fiziologik o'zgarishlar.
2. Dastlabki asab va ruhiy kasallikkalarga xos belgilarning namoyon bo'lishi.
3. Shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar.
4. Bilish faoliyatidagi kamchiliklar.

O'smirlik davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tarbiyasi qiyin o'smirlarning psixik rivojlanishlari xususiyatlari va darajalarini o'rghanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat dezadaptatsiyaga moyil o'smirlarda xotira mahsulorligining pastligi, mexanik eslab qolishning ustun turishi, umumlashtirishning konkret va funksional darajalari ustunlik qilishi, abstrakt fikrlashning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar. Bundan tashqari past darajadagi mehnatga layoqatlılik, tez charchab qolish hollari ham bunday toifadagi o'smirlarga xosdir. Bu omillar o'quv ko'nikma va malakalarining yetarli darajada shakllanmasligidagi sabablardan biridir. O'smirda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o'quvchi bilan o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi va ota-onasini qattiq tashvishga soladi. O'smirlar orasida asosan og'ma xulq-atvorning quyidagi ko'rinishlarini qayd qilish mumkin: Jumladan óqish va ish faoliyatidan bosh tortish, maktabda darslardan qochish, doimiy tarzda vazifalarni bajarmaslik, dars davomida e'tiborsiz bo'lish, o'yinlarga beriluvchanlik holatlari kuzatilishi mumkin. O'smirlik davrida kimningdir xatti-harakatini imitatsiya qilish, ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilishi orqali alkagol mahsulotlar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, uydan qochib ketish va daydi bo'lish shuningdek noformal guruhlarning jamiyatga qarshi kayfiyatda bo'lishi kabi ko'rinishda og'ma xulq atvorlar yuzaga keladi.

Tarbiyasi qiyinlik quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi:

- o‘zini-o‘zi qabul qilishning past darajasi;
- boshqalarni qabul qilishning past darajasi,
- tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan emotsionallikning namoyon etilishi;
- boshqalarga bog‘liqlik, ya’ni eksternallik;
- ustunlikka intilish.

Xulosa qilib aytganda, oilaning o‘smirlardagi tarbiyasizlikning yuzaga kelishini bartaraf etish uchun ota-onada tomonidan bolaning to‘liq bandligini ta‘minlashi, tengdoshlarining ijobjiy fazilatlarini ko‘rsatishi, yoshta oid xususiyatlaridan kelib chiqib individual xususiyatlarini inobatga olishi lozim. O‘smirlardagi salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etishda ta‘lim muassasalarining ham o‘rni muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologgi doimo o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ish olib borishi, do‘stlik haqida seminar-trening o‘tkazishi shuningdek mактабдаги та‘лим jarayoning adolatli ketishini ta‘minlashi maqsadga muvofiqdir. O‘smirlarni ijobjiy tomonga o‘zgartirish uchun esa kattalardan psixologik bilim va tajribani talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.Z. Nishonova va boshqalar. O‘smirlilik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi, Toshkent-2013
2. Kamilova N.G. “Muammoli o‘smir”. Tashxis,tadqiqot metodlari. T. 2006 y.
3. Komilova N. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi” T. 2014. 91-102bet
4. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat T., 2006 135-b
- 5.Qodirova, M. (2022). O‘smirlar tarbiyasining qiyinchilik xususiyatlari va ularning kelib chiqish sabablari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>
- 6.Qaxramonovna, Q. M. (2022, March). Tarbiyasi qiyin o‘smirlar borasidagi tadqiqotlar. *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 1).
- 7.Qodirova, M., & Abirqulova, S. (2022). O‘smirlarga xos agressivlik va uning ko‘rinishlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6416>
- 8.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.
- 9.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.
- 10.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном

образовании, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

11.Shakarboyeva. (2024). O'SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>

12.Shakarboyeva, & Худойқулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>

13.Алибеков, Д. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ.

14.Алибеков, Д. (2022). Таълимни инновацион ривожлантиришнинг муҳимлиги ва унинг ижтимоий-фалсафий аҳамияти. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 531-533.

15.Alibekov, D., & Yuldashev, S. (2023). THE STRATEGIC SIGNIFICANCE OF THE INNOVATIVE APPROACH TO THE EDUCATION SYSTEM IN SOCIETY DEVELOPMENT. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 1(2), 44-49.

16.Nodira, F. (2018). Professionally significant qualities and skills of a teacher of foreign languages. *Достижения науки и образования*, 1(7 (29)), 83-85.

17.O'risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

18.O'risheva, P. (2023). SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).

19.O'risheva, P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).

20.Ўришева, П. (2022). РОЛЬ МУЛЬТИДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 559-562.

21.QIZI, O. R. P. G. A. (2022). ILK O 'SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(1), 32-36.

22. Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>

- 23.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
24. Fayziyeva, nodira. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 126-131. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9553>
- 25.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
- 26.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 27.Собировна, ФН (2024). Психологические особенности учащихся начальных классов. *Wire Insights: Журнал Innovation Insights*, 2 (2), 16–18.
- 28.Файзиева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).
- 29.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(12), 211-215.
- 30.Нодира, Ф. (2018). Профессионально значимые качества и умения преподавателя иностранных языков. *Достижения науки и образования*, 1 (7 (29)), 83-85.
- 31.Fayziyeva, nodira. (2024). BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA ALOQA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8721>
- 32.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.
- 16.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(12), 211-215.
- 33.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.
- 34.Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOO'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.
- 35.Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогики

и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/941>

36.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).

37.Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOO'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.

38.Odiljonova, X. (2024). "MEN" KONSEPSIYASIGA YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOSLIGI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 62-70. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9515>

39.Abdulakimovna, S. S. (2021). TEACHERS SELF-DEVELOPMENT AS A CRITERION FOR INCREASING PROFESSIONAL COMPETENCE. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 58-60.

40.Shakarboyeva S. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 6.

41.Abdulakimovna S. S. Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 231-235.

42.Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKligini RIVOJLANTIRISH USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

43.Abdulakimovna, S. S. (2021). TEACHERS SELF-DEVELOPMENT AS A CRITERION FOR INCREASING PROFESSIONAL COMPETENCE. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 58-60.

44.Shakarboyeva S. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 6.

45. Abdulakimovna S. S. Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 231-235.

46.Kamolova, S. (2021). The Role Of Universal And Scientific Values In The Spiritual Development Of Future Teachers. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).